

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-mart oylarida Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinnarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 69 905,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 9,9 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 110,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent shahrining qo'shgan hissasi 21,0 % ga yetdi.

## 2025- yilning yanvar-mart oylarida Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



109,9 %

69 905,4 mlrd. so'm



110,4 %

21,0 %

- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi

## 2025- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o’sish sur’atlari

	<i>Mlrd. so‘m</i>		<i>O’sish sur’atlari, o’tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2024- yil</i>	<i>2025- yil</i>	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>57 623,9</b>	<b>69 905,4</b>	<b>109,9</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo‘silgan qiymati	52 671,5	63 414,2	109,8
mahsulotlarga sof soliqlar	4 952,4	6 491,2	111,4
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo‘silgan qiymati</b>	<b>52 671,5</b>	<b>63 414,2</b>	<b>109,8</b>
<b>sanoat (qurilishni qo‘silgan holda)</b>	<b>18 938,2</b>	<b>21 772,9</b>	<b>108,6</b>
sanoat	14 570,2	16 109,5	104,5
qurilish	4 368,0	5 663,4	122,0
<b>xizmatlar</b>	<b>33 733,3</b>	<b>41 641,3</b>	<b>110,4</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	8 810,5	10 096,5	106,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	8 611,8	12 396,5	122,4
boshqa xizmat tarmoqlari	16 311,0	19 148,3	106,2

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 22 401,2 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 7,4 % ga yuqoridir.

## 2025- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so‘mda)



## 2025- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	<b>2024- yil</b>	<b>2025- yil</b>
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	91,4	90,7
mahsulotlarga sof soliqlar	8,6	9,3
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>sanoat</b> (qurilishni qo'shgan holda)	<b>36,0</b>	<b>34,3</b>
sanoat	27,7	25,4
qurilish	8,3	8,9
<b>xizmatlar</b>	<b>64,0</b>	<b>65,7</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	16,7	15,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	16,3	19,5
boshqa xizmat tarmoqlari	31,0	30,3




2025- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 90,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 9,3 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida sanoat tarmog'ining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 25,4 % ni, qurilish 8,9 % ni va xizmatlar sohasi 65,7 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (*jamiga nisbatan % da*)

2024- yil



2025- yil



● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga sanoat tarmog'i – 1,1 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 2,0 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,7 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 1,1 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 6,1 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 8,5 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 1,0 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 1,4 f.p.)ga ko'paydi.


## 2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)

### YAHM



9,9 %

### Qurilish



1,7 %

### Mahsulotlarga sof soliqlar



1,0 %

### Sanoat



1,1 %

### Xizmatlar




6,1 %

2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari sanoatda – 104,5 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 25,4 %), qurilishda – 122,0% (8,9%), xizmatlar sohasida – 110,4% ni (65,7%) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 106,5 % (15,9%), tashish va saqlash, axborot va aloqa 122,4 % (19,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 106,2 % dan (30,3 %) iborat bo'ldi.

**Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**

2024- y.

2025- y.




2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 110,4 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda –106,3 % va xizmatlarda – 111,8 % qayd etildi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



2025- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 31 029,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-mart oylarida – 27 056,2 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 48,9 % ni (2024- yilning yanvar-mart oylarida – 51,4 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

## Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)



Hajmi, mlrd.so‘m

Ulushi, % da

2024- yil

27 056,2

51,4 %

2025- yil

31 029,7

48,9 %

